

## G'alaba nashidasi

✘ 2019 yil 10 fevral kuni “Sport bizni birlashtiradi” shiori ostida, “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakultetining “Yoshlar bilan ishlash” bo'yicha dekan o'rinbosari hamda “Yoshlar ittifoqi” yetakchisi tashabbusi bilan fakultetning barcha talaba-yoshlari o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida, talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha mini-futbol bo'yicha “Dekan kubogi” musobaqasi o'tkazildi.

Mazkur musobaqani fakultet dekani B.Norov tomonidan ko'tarinki ruhda ochib berdilar. Musobaqada jami 180 nafar, 18 ta guruh terma jamoalari faol ishtirok etib, murosasiz bellashuv bo'lib o'tdi. Musobaqa sermazmun va samarali o'tkazildi.

Ushbu bellashuv yakunida g'olib jamoalarni fakultet rahbariyati tomonidan diplom, kubog hamda estalik sovg'alar bilan munosib taqdirlandilar. Turnir yakuni bo'yicha: 1-o'rinni XFX 209- guruh terma jamoasi egallab guruhlar o'rtasida tengsiz deb topildi. 2-o'rin XFX 309- guruh terma jamoasiga nasib etdi. Faxrli 3-o'rinni SXMIM 302- guruh terma jamoasi egalladi.

“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida mudiri M.Norqobilov axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov